



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

12. Rösmann, C., Hoffmann, F., & Bertram, T. (2017a). Integrated online trajectory planning and optimization in distinctive topologies. *Robotics and Autonomous Systems*, 88, 142–153. <https://doi.org/10.1016/j.robot.2016.11.007>
13. Rösmann, C., Hoffmann, F., & Bertram, T. (2017b). Online trajectory planning in ROS under kinodynamic constraints with timed elastic bands. In A. Koubaa (Ed.), *Robot Operating System (ROS): The complete reference* (Vol. 2). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-319-54927-9_3
14. Thrun, S., Burgard, W., & Fox, D. (2005). *Probabilistic robotics*. MIT Press.
15. Yoo, H., Kim, J., & Lee, S. (2025). Improved model predictive control for dynamic obstacle avoidance. *Mathematics*, 13(22), 3624. <https://doi.org/10.3390/math13223624>

TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARIDA RAQAMLI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xolmo‘minova Diyora Nurullo qizi

Toshboyev Arslonbek Adumalik o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

1-bosqich magistranti

xolmominovadiyora23@gmail.com

Annotatsiya: Quyidagi maqolada transport-logistika xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni yoritib o‘tilgan. Shuningdek, logistika tizimida GPS monitoring, elektron hujjat aylanishi, ERP va TMS tizimlari, sun‘iy intellekt hamda raqamli platformalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston va xalqaro tajriba asosida logistika sohasini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: transport logistikasi, raqamlashtirish, AKT, ERP, TMS, GPS monitoring, raqamli logistika, iqtisodiy samaradorlik, aqlli omborlar.

Bugungi kunda transport-logistika tizimi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning geografik joylashuvi jihatidan Markaziy Osiyoda muhim tranzit hudud sifatida joylashgani transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu sababli logistika tizimida zamonaviy raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda mamlakatning logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda

raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish” masalalariga alohida e’tibor qaratilgan¹⁸. Mazkur qarorda logistika tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ushbu mavzuning dolzarbligini ko’rsatadi.

Globalashib borayotgan iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri raqamlashtirish jarayoni hisoblanadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning nafaqat rivojlanishi, balki raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritishi ham raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog’liq bo’lib qolmoqda. Har bir soha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashmoqda. Buning asosiy sababi sifatida samaradorlik, tejamkorlik, rentabellik hamda tezkorlikni oshirishda AKTning muhim ahamiyat kasb etayotganini ko’rsatish mumkin.

Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, raqamli logistika yechimlari korxonalarda operatsion xarajatlarni o’rtacha 10–30 foizgacha qisqartirishga, yetkazib berish muddatini esa 20–50 foizgacha tezlashtirishga xizmat qilmoqda¹⁹. Ayniqsa, XXI asrda biznes jarayonlari tobora ko’proq raqamli platformalarga asoslanmoqda. Transport-logistika xizmatlarida GPS monitoring tizimlari, elektron hujjat aylanishi, ERP (Enterprise Resource Planning) hamda TMS (Transport Management System) kabi axborot tizimlaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyalar logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bilan bir qatorda real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatini ham yaratmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasida logistika tizimini raqamlashtirish yuqori iqtisodiy natijalarni bermoqda. Jumladan, Amazon kompaniyasi ombor logistikasida robotlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, buyurtmalarni qayta ishlash tezligini sezilarli darajada oshirgan. Shuningdek, FedEx va UPS kompaniyalari GPS va IoT texnologiyalari yordamida transport vositalarini real vaqt rejimida monitoring qilish tizimini joriy etgan. Bu esa transport xarajatlarini kamaytirish, yoqilg’i sarfini optimallashtirish va xizmat sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Xalqaro logistika bozorida DHL hamda Maersk kompaniyalari ham raqamli transformatsiya jarayonida yetakchi hisoblanadi. Xususan, Maersk blockchain texnologiyasi asosida elektron hujjat almashinuvi tizimini joriy etgan bo’lsa, DHL sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida logistika marshrutlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishmoqda.

O’zbekiston transport-logistika sohasi ham bosqichma-bosqich raqamli transformatsiya jarayoniga kirib bormoqda. Biroq, sohada raqamlashtirish darajasi hali to’liq shakllanmagan bo’lib, infratuzilma va integratsiyalashgan raqamli platformalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatilmoqda. World Bankning logistika samaradorligi indeksi (LPI) ma’lumotlariga ko’ra, raqamli infratuzilmasi rivojlangan davlatlar xalqaro savdo va tranzit salohiyati bo’yicha sezilarli ustunlikka ega hisoblanadi.

¹⁸ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, 27.01.2025 yildagi PQ-28-son.

¹⁹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD). Raqamli iqtisodiyot hisobotlari (Digital Economy Report 2021–2024).<https://unctad.org>

Raqamli logistika tizimlariga o'tish kompaniyalarga yoqilg'i sarfini optimallashtirish, marshrutlarni samarali rejalashtirish va inson omilini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Natijada xizmat sifati yaxshilanadi, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezlashadi hamda logistika zanjirining barcha bosqichlarida shaffoflik ta'minlanadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli logistika platformalari, sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari hamda "aqlli omborlar" (smart warehouse) logistika sohasining kelajakdagi asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. O'zbekiston sharoitida ham ushbu texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish transport-logistika xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, transport-logistika xizmatlarida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish logistika tizimining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli transport-logistika sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 27.01.2025 yildagi PQ-28-son.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD). Raqamli iqtisodiyot hisobotlari (Digital Economy Report 2021–2024). – Jeneva, 2024.
3. Jahon banki (World Bank). Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index – LPI) hisoboti. – Vashington, 2023.
4. Jahon banki guruhi. Global iqtisodiyotda savdo logistikasi: raqobatga kirishish (Connecting to Compete). – Vashington, 2023.
5. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). Transport va logistika tizimlarining raqamli transformatsiyasi. – Parij, 2022.
6. Bowersox, D.J., Closs, D.J., Cooper, M.B. Ta'minot zanjiri va logistika boshqaruvi. – McGraw-Hill Education, 2019.
7. Christopher, M. Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi. – Pearson Education, 2022.
8. Xalqaro transport forumi (ITF). Transport istiqbollari hisoboti. – OECD Publishing, 2023.
9. DHL. Raqamli logistika tendensiyalari hisoboti. – Bonn, 2024.